

Temperament va xarakter shakllanishida ijtimoiy omillarning roli

Shuhratjon Shukurjon o'g'li Yoqubjanov

yoqibjonovshuhrat26@gmail.com

Ilmiy rahbar: Dilafruz Oribboyeva

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada temperamentning biologik asoslari hamda xarakter shakllanishida ijtimoiy omillarning nisbiy roli psixologiya fanining zamonaviy nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Temperaturaning nerv tizimi xususiyatlari, genetik meros, neyrofiziologik jarayonlar bilan bog'liqligi ta'riflanadi va uning tug'ma, nisbatan barqaror jihatlar sifatida belgilab berilishi yoritiladi. Xarakter esa shaxsning ijtimoiy tajribasi, tarbiya, madaniy muhit, ijtimoiy munosabatlar va faoliyat jarayonida shakllanadigan barqaror xulqiy tuzilma sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada temperament va xarakter o'rtasidagi funksional bog'liqlik, temperamentning cheklovi va yo'naltiruvchi ta'siri, ijtimoiy omillarning esa tuzutuvchi, o'zgartiruvchi va individuallashtiruvchi roli tanqidiy yondashuv asosida baholanadi. Shuningdek, biologik omillar bilan ijtimoiy tajriba o'rtasidagi o'zaro ta'sirning shaxs rivojlanishida qanchalik nisbatda namoyon bo'lishi haqidagi ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalarida shaxsning individual psixologik tuzilmasini tushunishda deterministik yondashuvlar yetarli emasligini, temperamentning biologik bazasi bilan xarakterning ijtimoiy shakllanish jarayoni o'zaro bog'liq murakkab tizimni tashkil etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: temperament, xarakter, biologik, ijtimoiy, jarayon, xulq, I.P.Pavlov, V.N.Myasishchev, individual xususiyat, xulq-atvor, oila muhitining barqarorligi, ta'lim tizimi, tarbiyaviy yondashuvlar, media, zamonaviy axborot muhiti

The role of social factors in the formation of temperament and character

Shuhratjon Shukurjon oglu Yaqubjanov

yoqibjonovshuhrat26@gmail.com

Scientific supervisor: Dilafruz Oribboyeva

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article examines the biological foundations of temperament and the relative role of social factors in the formation of character, drawing on

contemporary psychological theories. Temperament is discussed in relation to the properties of the nervous system, genetic inheritance, and neurophysiological processes, and is presented as an innate and relatively stable dynamic component of personality. Character is defined as a stable behavioral structure shaped through socialization, upbringing, cultural environment, interpersonal relations, and the individual's activity. The analysis focuses on the functional interplay between temperament and character: the constraining and directing influence of temperament versus the corrective, transformative, and individualizing functions of social factors. A comparative review of scholarly perspectives on the interaction between biological predispositions and social experience in personality development is provided. The findings highlight the limitations of deterministic explanations and demonstrate that the biological basis of temperament and the social mechanisms underlying character formation constitute an interconnected and multi-layered system.

Keywords: temperament, character, biological, social, process, behavior, I.P.Pavlov, V.N.Myasishchev, individual characteristics, behavior, stability of the family environment, education system, educational approaches, media, modern information environment

KIRISH

Inson teperamentlari turli xilligi bilan bir-biridan ajralib tursa-da, bu temperamentlarning birortasi ham jamiyatdan ajralgan holda shakllanmaydi. Odamning qiziqishlari, o'zini tutish uslubi va his tuyg'ularni namoyon qilish uslubi - bularning barchasi ijtimoiy muhit bilan uzluksiz tarzda bevosita ta'sirda rivojlanadi. Oiladagi ijtimoiy muhit, do'stlar davrasidagi muhit, tarbiya uslublari, ommaviy madaniyatlar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari - bularning barchasi temperament shakllanishida turli vazifalarni bajaradi. O'quvchilarga ko'pincha temperamentni tug'ma, xarakterni esa orttirilgan deb o'rgatishadi. Ammo bu ikki xususiyatning o'zaro aloqalarini soddalashtirilgan holda talqin qilish biroz noto'g'ri.

Temperamentning fiziologik asosi nisbatan barqaror bo'lsa-da, hech qachon ijtimoiy muhitdan keladigan ta'sirlardan chetda qolmaydi. Inson dunyoga kelgan davrdan boshlab uning oilasidagi muhit, muloqot shakli, tarbiya uslubi yoki turli xil qarorlarda yoshlarni qo'llab-quvvatlanishi orqali o'z hissiyotlarini qanday namoyon etib atrofdagilarga qay tarzda yetkazishni o'rganadi.

Xarakter shakllanishida esa ijtimoiy muhit temperament shakllanishidagidan ko'ra faol rol o'ynaydi. Maktabda o'quvchilarga qo'yiladigan turli xulq-atvor va intizor talablari, o'qituvchilarning munosabati, tengdoshlarining ta'siri, turli xil qadriyatlar, an'analar - bularning barchasi shaxsning irodaviy sifati, mas'uliyat hissi, xulq me'yorlariga munosabati va turli qarorlar qabul qilish jarayonini asta-sekin va bosqichma-bosqich shakllantirib boradi. Hatto temperamentdan kelib chiqib sodir

bo'ladigan tabiiy reaksiyalar ham aynan shu omillar ta'sirida ijtimoiy jihatdan jamiyatda qabul qilingan turli qarorlarga moslashadi.

Bugungi zamonaviy dunyo sharoitida bu jarayonlar yanada murakkablashib bormoqda: raqamli texnologiyalar muhiti, ijtimoiy tarmoqlar, muloqot shakllari, onlayn hayotdagi turli bosimlar shaxsning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan hatto oila va maktabdan ham ko'ra kuchliroq bo'lib ketadigan virtual muhitda yuzaga keladigan tajribalar temperamentning ham, xarakterning ham shakllanishiga o'ziga xos o'zgarish olib kirdi. Shu sababli xarakter va temperamentni alohida hodisa sifatida emas, balki biologik imkoniyatlar va ijtimoiy tajriba o'rtasidagi o'zaro murakkab ta'sirlar natijasi sifatida ko'rib chiqish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inson psixologiyasi murakkab tizim bo'lib, uning shakllanishi biologik, ijtimoiy va shaxsiy omillar bilan belgilanadi. Shaxsning ruhiy jarayonlari, hissiyotlari va xulq-atvori, xakteri, avvalo, temperament bilan chambarchas bog'liqdir. Temperament insonning tug'ma, nerv tizimining kuchi muvozanati va harakatchanligiga asoslangan psixik xususiyat hisoblanadi. U shaxsning tashqi olamga munosabati, faoliyatga bo'lgan yondashuvi hamda ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilaydi. Temperament lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi aralashma degan ma'noni anglatadi.^[1]

Quyidagi ma'lumotga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda temperament inson tug'ilishi bilan bevosita va tabiiy tarzda yuzaga keladigan jarayon sifatida tilga olingan. Lekin, aslida temperament inson umri davomida yillar bo'yicha shakllanadi. Chunki muhit inson psixikasiga o'z ta'sirini o'tkazgani sababli psixikaga bog'liq bo'lgan temperamentda ham o'zgarish sodir bo'ladi. Masalan, bir inson bir vaqtning o'zida turli vaziyatlarda turli temperament xususiyatlarini namoyish etadi. Buning sababi uning bir necha yilda bir necha muhitda yashagani sababli sodir bo'ladi.

Yana bir ta'rifga ko'ra temperament, bu insonning aqliy jarayonlarining barqaror dinamik xususiyatlari to'plami: temp, ritm, intensivlik. Temperament faoliyatning mazmunli emas, balki dinamik jihatlari bilan bog'liq. Temperament aqliy jarayonlarning tezligini, hissiy sohaning barqarorligini, ixtiyoriy harakat darajasini belgilaydi.

Temperamentning birinchi nazariyasi va atamaning ta'rifi Gippokrat tomonidan shakllantirilgan, Galen uning g'oyalarini ishlab chiqqan. XX asrda I.P.Pavlov temperamentning fiziologik asosi yuqori asabiy faoliyat turi, xulq-atvorni neyrokimyoviy tartibga solishdagi farqlar ekanligini ta'kidladi. Temperament xarakterning shakllanishi va rivojlanishining asosini tashkil qiladi; inson va hayvonlarning biologik jihatdan aniqlangan individual farqini anglatadi.^[2]

Xarakter - shaxsning munosabatlari va xulq-atvorning xususiyatlarini belgilaydigan doimiy, nisbatan doimiy aqliy xususiyatlarning tuzilishi. Xarakter

xususiyatlari ma'lum bir xulq-atvor, turmush tarzini belgilaydigan insonning muhim xususiyatlarini tashkil etadi. V.N.Myasishchev fikriga ko'ra xarakter qat'iy psixofiziologik ma'noda - "bu haqiqat bilan shartli refleksli aloqalar tizimi, buning asosi shartsiz refleksli aloqalar" hisoblanadi.

Xarakterning individual xususiyatlari shaxsiyat munosabatlarida namoyon bo'ladi:

- o'zingizga;
- atrofdagi odamlarga;
- atrofdagi dunyoga;
- mehnat va ish uchun;
- o'zingizning va boshqalarning narsalariga.

Shunga o'xshash munosabatlar uning faoliyati, xulq-atvorida muntazam ravishda topiladigan xarakter-xususiyati orqali ifodalanadi; xususiyatlarning ikkinchi guruhi kognitiv, hissiy va ixtiyoriy sohalarga tegishli.^[2]

Temperament va xarakterni aniqlashga yordam beradigan eng yaxshi usul bu test hisoblanadi. Qolaversa, kuzatish, so'rovnoma, intervyu va turli suratli testlar ham temperament va xarakterni aniqlovchi metodikalar hisoblanadi. Ana shunday metodikalardan biri bu temperamentni aniqlashda eng yaxshi usul hisoblangan "Ayzenk temperament so'rovnomasi" hisoblanadi. Ushbu so'rovnoma turli xil savollardan tashkil topgan bo'lib, ushbu savollarga o'quvchilarning bergan javoblarini tahlil qilish orqali temperamentni aniqlash mumkin.

Xarakterni aniqlashda eng yaxshi metodika bu "Kettelning o'n olti shaxs faktori" testi hisoblanadi. Ushbu test xarakterning o'n oltita asosiy faktorini aniqlashga yordam beradi. Bu test barcha xarakter xususiyatlarini o'rganishni qamrab oladi, lekin test diqqat bilan o'tkazilmasa, testning natijadorligi kamayib ketadi.^[3]

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari temperament biologik asosga ega bo'lsa ham, uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri xarakter shakllanishida hal qiluvchi omillarga aylanishini ko'rsatadi. Ma'lumotlar tahlili bir nechta asosiy yo'nalishni ochib beradi:

1. Oila muhitining barqarorligi - xarakter tuzilishining asosidan biri.

Oilaviy muhit tinch, qo'llab-quvvatlashga asoslangan bo'lsa, barcha temperament tiplari (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) o'zining kuchli tomonlarini turli yo'nalishlarda namoyon qilishini ko'rsatadi. Aksincha, tartibsiz yoki nizoli sharoitda ayniqsa hissiyotlari kuchli bo'lgan bolalarda impulsivlik, tashvish, agressiv javoblar kuchaygani ko'rsatilgan. Bu natija temperament tug'ma bo'lsa ham, muhitning yo'nalish beruvchi roli juda katta ekanini ko'rsatadi.

2. Ta'lim tizimi va tarbiyaviy yondashuvlar temperamentga moslashganda yaxshi natija beradi.

Guruhlar bo'yicha taqqoslashda o'qituvchi va tarbiyachining individual yondashuvi mavjud bo'lgan sharoitlarda bolalarning moslashuv darajasi, o'zini boshqarish ko'nikmalari hamda ijtimoiy muloqotdagi muvaffaqiyati sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

3. Media va zamonaviy axborot muhitining ta'siri ikki qirrali.

Kuzatuvlarda raqamli muhit bilan ko'p vaqt o'tkazgan bolalarda emotsional reaktivlik kuchayishi sabrsizlik, qisqa e'tibor oralig'i kabi holatlar qayd etiladi. Lekin konstruktiv kontent, nazoratli foydalanish mavjud bo'lgan sharoitlarda analitik fikrlash, ijtimoiy muloqotning yangi shakllari va ijodkorlikning kuchaygani kuzatilgan. Bu natija media ta'sirining temperamentni bevosita o'zgartirmasligi, ammo xarakter sifatlarini yo'naltirishdagi yo'lini ko'rsatadi.^[4]

XULOSA

Shaxsning individual psixologik tuzilmasi biologik va ijtimoiy determinantlarning uzviy integratsiyasi natijasida yuzaga keladi. Temperament - nerv tizimi xususiyatlari, genetik predispozitsiyalar va neyrofiziologik jarayonlar bilan bog'liq tug'ma xususiyatlar majmui bo'lib, shaxsning emotsional reaktivligi, tezkor javob berish qobiliyati, harakatchanligi va muvozanatlilik darajasini belgilaydi. Shu bilan birga, xarakter ijtimoiy tajriba, tarbiya, madaniy va makroiijtimoiy muhit hamda shaxsiy faoliyat jarayonida shakllanadi. Xarakter biologik predispozitsiyalarni yo'naltiradi, ularni moslashtiradi va shaxs xulqining ijtimoiy talablar bilan uyg'unlashgan tuzilishini ta'minlaydi.

Temperament va xarakter o'rtasidagi munosabat deterministik emas, balki doimiy o'zaro ta'sir orqali rivojlanadi. Biologik predispozitsiyalar xulqiy salohiyatni belgilasa, xarakter ularni ijtimoiy kontekstda realizatsiya qilish va moslashuvchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xarakter temperamental cheklovlarni yumshatishi, yo'naltirishi va ba'zan kuchaytirishi mumkin, bu esa shaxsning xulqiy tizimini murakkab va moslashuvchan qiladi.

Ushbu yondashuv shaxsning psixologik tuzilishini tushuntirishda biologik va ijtimoiy omillarni integrativ tarzda hisobga olishning ahamiyatini ko'rsatadi. Temperament va xarakter o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatida qoraladi, bu esa har qanday deterministik yoki soddalashtirilgan modelni qoniqarli deb bo'lmasligini isbotlaydi. Natijada, shaxsning individual psixologik tuzilmasini izohlash uchun biologik predispozitsiyalar va ijtimoiy tajribani birgalikda, murakkab tizim sifatida tahlil qilish zaruriyati ochiq-oydin namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oriboeva, D. D. "va Rafiqova, RA (2024)." O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni amalga oshirishning xususiyatlari. Fan va ta'lim 5.6: 290-293.

2. Xakimova Sarvinoz, "Inson temperamentining psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy hayotdagi roli", maqola, "Science and education" scientific journal, 2025-yil, 25-noyabr.

3. Oribboyeva, Dilafruz Dadamirzayevna. "Social competence as an integral part of the teacher's professional maturity." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.11 (2020): 347-353.

4. Yunusova Shaxlo, "Temperament tushunchasi va temperamentni aniqlash metodikalar", maqola, "Ijtimoiy fanlarda innovatsiya" onlayn ilmiy jurnali, 2022-yil 28-fevral

5. Nodirbek Otabek o'g'li Abdulxaqov, "Temperament, uning tiplari va shaxsiyat shakllanishidagi roli", maqola, "Science and education" scientific journal, 2024-yil fevral.

6. Орифбоева Д. Д. ОПТИМИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ // Форум молодых ученых. 2017. №6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatel'nogo-protsessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 03.12.2025).

7. Oribboyeva, D. "BULLING O'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1 (12), 115-117." 2024

8. Орифбоева, Д. Д. "ММ Адашалиева Вопросы внедрения и развития инклюзивного образования в странах центральной азии." Ёш олимлар ахборотномаси»-«Вестник молодых ученых (2025).

9. Д. Д. Орифбоева, Н. Б. Каримова Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер таҳлили // Science and Education. 2025. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologik-tad-i-otlarda-bulling-mummosining-gender-tahlili> (дата обращения: 03.12.2025).

10. Д. Д. Орифбоева, М. М. Адашалиева ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ // «Ёш олимлар ахборотномаси» - «Вестник молодых ученых». 2025. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-vnedreniya-i-razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-stranah-tsentralnoy-azii> (дата обращения: 03.12.2025).

11. Orifboeva, D. D. "O'QITISH FAOLIYATI JARAYONIDA Stressni oldini olish." NovaInfo. Ru 3.41 (2016): 217-220.